YIRIK SOLIQ TO‘LOVCHILARNING SOLIQ MA’MURCHILIGINI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma’murchiligini amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo‘lib, bu tahlillar natijasida O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari, Yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, budjet siyosati, budjet, soliq ma’murchiligi, yirik soliq to‘lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

Kirish: Jahondagi rivojlanayotgan va o‘tish davrini kechirayotgan mamlakatlar tajribasi yirik soliq to‘lovchilarning qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish ma’lum xavflarni bartaraf etib, soliq qonunchiligini oshirish va soliq ma’murchiligining yanada samarali bo‘lishini ta’minlashini ko‘rsatmoqda. “Pandemiya munosabati bilan ko‘plab mamlakatlar soliq yig‘ish eroziyasini boshdan kechirmoqda, bu iqtisodiy faoliyatning pasayishi va soliqqa rioya qilishning mumkin bo‘lgan yomonlashuvini aks ettiradi. Aksariyat soliq ma’muriyatlari soliq to‘lovchilar bilan deyarli yuzma-yuz aloqa o‘rnatmay, masofadan ishlashga o‘tishga majbur bo‘ldi”. Bugungi kunda yirik soliq to‘lovchi majburiyatlarini baholash, soliq ma’muriyatchiligining asosiy funksiyalariga yangi axborotlashtirilgan tizimlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Amaldagi yirik soliq to‘lovchilarga faoliyatidagi soliq ma’murchiligining mavjud muammolardan biri - yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarni aniqlashda qo‘llaniladigan mezonlar bilan bog‘liq hisoblanadi.

Xususan, amaldagi yirik soliq to‘lovchilarni aniqlash mezonlarining a) bandi bo‘yicha respublikadagi barcha aksiz solig‘i to‘lovchi korxonalar yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilishi belgilangan. Tadqiqotimizda doirasida ushbu mezonga kiruvchi soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan soliqlar tahlil qilib chiqildi.

Tahlilda, aksiz solig‘i to‘lovchi yirik korxonalar hisoblangan alkogol va pivo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning jami to‘langan soliqlari, ularning umumiy yirik soliq to‘lovchilar soliq tushumlaridagi ulushi va soni jami yirik soliq to‘lovchilar sonidagi ulushi ko‘rib chiqildi.

Yuqoridagi 1-jadval ko‘rishimiz mumkinki, alkogol va pivo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarning soni 2023-yilga kelib jami yirik soliq to‘lovchilarning 9,7 foizini tashkil qilgan holda jami soliq tushumlarining 3 foizinigina tashkil qilgan xolos. Ushbu band bo‘yicha yirik soliq to‘lovchi hisoblangan "Oziq-ovqat Surxon Denov" XK faoliyati pivo ishlab chiqarish bo‘lib, aksiz solig‘i to‘lovchi hisoblanadi. Ushbu korxona tomonidan 2019-yilda 21,5 mln.so‘m, 2020-yilda 11,0 mln.so‘m, 2021-yilda 13 mln.so‘m, 2022-yilda 8 mln.so‘m va 2023-yilda 9 mln.so‘m to‘langan.

1-jadval

Alkogol va pivo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning soni va to‘langan soliqlar tahlili[1](trln.so‘mda)

Nomi	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Jami yirik soliq to‘lovchilar soni	1416	836	1149	957	886
shundan, alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yirik soliq to‘lovchilar soni	76	84	84	85	86
Jami yirik soliq to‘lovchilar sonida alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi	5,4	10,0	7,3	8,9	9,7

[1] Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

korxonalar soni ulushi (foizda)					
Jami yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan soliqlar	45,9	67,7	81,8	88,3	97,7
shundan, alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘langan soliq	2,1	2,2	2,3	2,4	2,9
Jami yirik soliq to‘lovchilar soliq tushumida alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni ulushi (foizda)	4,6	3,2	2,8	2,7	3,0

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, alkogol va pivo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar sonining ko‘pligi bilan ular tomonidan to‘langan soliqlarning jami soliq tushumlaridagi ulushi kamligi sababli alkogol va pivo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni yirik soliq to‘lovchilar toifasidan chiqarish zarur. Bu sohadagi tovar aylanmasi katta soliq to‘lovchilarni esa yirik soliq to‘lovchilarni aniqlashning “d” mezoni bo‘yicha yirik soliq to‘lovchilar toifasida qoldirish taklif etiladi. Buning natijasida yirik soliq to‘lovchilar ma’murchiligi bo‘yicha shug‘ullanayotgan xodimlarning boshqa asosiy sohalarga e’tiborni qaratish orqali qolgan yirik soliq to‘lovchilarga sifatli ma’murchilik yuritilishi ta’minlanadi.

2023-yil yakunlari bo‘yicha sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarning 21 tasining soliq ma’murchiligi hududiy soliq organlarida yuritilgan. Tadqiqotimizning 3-bobida keltirilgan aksar o‘rganilgan xorijiy davlatlarda moliyaviy faoliyat ko‘rsatuvchi, jumladan sug‘urta tashkilotlari yuridik shaxslar yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu sababli, yirik soliq to‘lovchilarni aniqlash mezonining “b” bandini “tijorat banklari va sug‘urta tashkilotlari, tovar-xom ashyo, fond hamda valyuta birjalari” deb o‘zgartirish taklif etiladi.

Yirik soliq to‘lovchilarni aniqlash bo‘yicha mezonning “v” bandida “Navoiy

kon metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaliq metallurgiya kombinati” AJ hamda ularning ta’sischiligidagi tashkilotlar yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilishi belgilangan. Biroq, O‘zbekiston Respublikasidagi eng yirik korxonalardan biri hisoblangan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan bo‘lsada, ularning hududiy 13 ta tashkilotlari yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilmaganligi, ularning ko‘pgina moliyaviy operatsiyalari bevosita bosh korxona bilan amalga oshirilishi natijasida ularni soliqqa tortish, soliq ma’murchiligida va debitor-kreditor qarzdorliklarini qisqartirishda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Shu sababli, yirik soliq to‘lovchilarni aniqlash mezonining “v” bandiga “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ hamda ularning ta’sischiligidagi korxonalar degan jumlani ham qo‘shish taklif etiladi.

Ma’lumki, “Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi nizomning “d” bandiga ko‘ra, mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi o‘tgan kalendar-yil yakuni bo‘yicha 100 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan yoki ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr yakuni bo‘yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxsining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalari) mezoniga to‘g‘ri keladigan soliq to‘lovchilar yirik soliq to‘lovchi sifatida belgilangan”[2].

Ammo, bu mezon mamlakatdagi mavjud inflyatsiya darajasi, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari va mahsulot ishlab chiqarish hajmining qiymatlarining oshishi, ularning rivojlanishi nuqtai nazaridan bugungi kun talablariga mos kelmay qolmoqda. Mazkur mezon 2019-yil tovar aylanmasidan kelib chiqib hisoblangan bo‘lib, inflyatsiya darajasi 2019-yilda 15,2 foizni, 2020-yilda 11,1 foizni, 2021-yilda 10 foizni va 2022-yilda 12,3 foizni, 2023-yilda esa 8,7 foizni tashkil etib, umumiy hisobda 2019-yilga nisbatan 57,3 foizga oshgan. Natijada 2024-yilga kelib yirik soliq to‘lovchilar soni 1631 taga yetib, 2023-yilga

[2] www.lex.uz Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi nizom.

nisbatan 745 taga keskin oshib ketishi natijasida Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasi tomonidan ham ularning soliq ma’murchiligini yuritishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Ushbu band bo‘yicha qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan ishlovchi yuridik shaxslar (jumladan klasterlar) bevosita mahalliy hokimliklar, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi va bevosita uzviy bog‘liqligi sababli ushbu korxonalarda ko‘plab muammolar kelib chiqmoqda. Shuningdek, 110 ta yirik soliq to‘lovchi korxonaning ishchi-xodimlari 10 nafardan kam bo‘lib, ular tomonidan 2023-yilda 804 mlrd.so‘m soliq to‘langan xolos.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritish mezonlarining “d” bandini “mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumi o‘tgan kalendar-yil yakuni bo‘yicha amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 735000 baravaridan ortiq bo‘lgan summada (250 mlrd.so‘m atrofida) yoki ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr yakunida ushbu miqdordan oshgan va ishlovchi xodimlar sonining o‘rtacha-yillik o‘ntadan kam bo‘lmagan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining O‘zbekistondagi doimiy muassasalari deb o‘zgartirish kiritish taklif etiladi. Shunungdek, bundan paxta-to‘qimachilik klasterlari, to‘qimachilik korxonalar, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosini amalga oshiruvchi korxonalar chiqarilishi zarur.

Mazkur o‘zgarishlar natijasida yirik soliq to‘lovchilar soni maqbullashib, hududlararo soliq inspeksiyasi xodimlari e’tiborini eng muhim yirik subyektlarga qaratish imkoniyati kengayadi. Bu esa ularning soliq ma’murchiligi sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini yaxshilashga olib keladi.

2-jadval

O‘zbekistonda yirik soliq to‘lovchilarni aniqlash bo‘yicha mezonlarga o‘zgartirish kiritish taklif natijasida yirik soliq to‘lovchilar soning o‘zgarishi tahlili [3]

Yirik soliq to‘lovchilar

[3] Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1 yanvar 2024-yildagi tartib bo‘yicha		Taklif etilayotgan		Farqi
Mezon	**Soni**	**Mezon**	**Soni**	
a)aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va aksiz to‘lanadigan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar;	127	a)aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va aksiz to‘lanadigan xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar, **bundan alkogol va pivo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar mustasno;**	42	-85
b)tijorat banklari, tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjalari;	39	b)tijorat banklari, **sug‘urta tashkilotlari,** tovar-xom ashyo, fond va valyuta birjalari;	60	+21
v) “Navoiy KMK” DK, “Olmaliq KMK” AJ hamda ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar;	4	v) “Navoiy KMK” AJ, “Olmaliq KMK” AJ, “**O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ** hamda ularning ta’sischiligidagi tashkilotlar;	18	+14
d)mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan olingan sof tushumi o‘tgan kalendar-yil yakuni bo‘yicha 100,0 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan yoki ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr yakuni bo‘yicha ushbu miqdordan oshgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining	1163	d)mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumi o‘tgan kalendar-yil yakuni bo‘yicha **bazaviy hisoblash miqdorining 735 ming baravaridan yuqori bo‘lgan** yoki ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr yakuni bo‘yicha ushbu miqdordan oshgan **hamda xodimlar soni o‘rtacha-yillik**	582	-581

O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalari);		**10 nafardan kam bo‘lmagan** yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalari), **bundan paxta-to‘qimachilik klasterlari, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar mustasno;**		

Bugungi kunda mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, tadbirkorlik faoliyati uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish hamda tartibga solish va ma’muriy yukni qisqartirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq qonunchiligi talablariga rioya etish jarayonlarini avtomatlashtirish va ularni soddalashtirish zarurati ortib bormoqda.

Xulosa va takliflar.

Tekshiruv harakatlarini yuqori xavfli hududlarga va potentsial nomuvofiqliklarga yo'naltirish uchun xavfga asoslangan yondashuvni amalga oshiring. Bu soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki rioya qilmaslik ehtimoli yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash uchun ma'lumotlar tahlili, ilg'or texnologiyalar va keng qamrovli xavflarni baholash modellaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv soliq organlariga tekshirish resurslarini samarali va samarali taqsimlash imkonini beradi.

Soliq organlari va boshqa tegishli davlat organlari, masalan, moliya institutlari, bojxona organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar reyestrlari o‘rtasida uzluksiz ma’lumotlar almashinuvi va hamkorligiga ko‘maklashish. Ushbu ma'lumot almashinuvi soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyati, operatsiyalari va

aktivlarini yaxlit ko'rish imkonini beradi, xavflarni baholash va maqsadli tekshiruvlar uchun qimmatli tushunchalarni beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.